



№ 11

20 24 yil «dd» «yaniyuz»

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash Tartibini tasdiqlash haqida**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirdorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-292-sonli va 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-306-sonli qarorlariga muvofiq “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki zimmasiga qator vazifalar yuklatildi.

Mazkur qarorlar bilan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB zimmasiga Kichik biznesni uzuksiz qo’llab-quvvatlash kompleks dasturi bo‘yicha bir qator ustuvor vazifalar yuklatilganligini inobatga olib, ularning ijrosini sifatli va o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida bankning ichki me’yoriy hujjatlari qayta ko’rib chiqildi.

Xususan, bank tizimida kreditlash jarayonlarini samarali boshqarish hamda sog’lom kredit portfeli yuritilishini ta’minlash maqsadida Kreditlarni boshqarish departamenti tomonidan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash Tartib”i ishlab chiqilgan va o’rnatilgan tartibda Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to’g’risidagi Nizomning 27-bandiga asosan ichki me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash Boshqaruv vakolatiga kirishini inobatga olib, Boshqaruv

QAROR QILADI:

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash Tartib”i ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Kreditlarni boshqarish departamenti (F.Atayev) mazkur tartib mazmun-mohiyatini bankning hududiy tarkibiy bo’linmalaridagi mas’ul hodimlarga o’rgatish bo‘yicha o’quv-seminarlarini tashkil etsin.
3. Yuridik departament Metodologiya boshqarmasiga (S.Raxmatullayev) Boshqaruvning ushbu qarori bilan tasdiqlangan Ichki me’yoriy hujjatni bankning barcha hududiy tarkibiy bo’linmalariga qisqa muddatda yetkazish vazifasi yuklatilsin.



4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish vazifasi Boshqaruv raisining birinchi o'rribosari A.Muratov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi

S.Annaklichev

Boshqaruv raisining
birinchi o'rribosari

A.Muratov

Boshqaruv raisi o'rribosari

B.Bobojonov

Boshqaruv raisi o'rribosari

S.Olimjonov

Buhgalteriya hisobi va moliyaviy
menejment departamenti direktori

X.Maxmudov

Yuridik departament direktori
birinchi o'rribosari

B.Djumayev



Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “22 ” yanvar da
29 - son bilan
“RO’YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining

2024-yil “22 ” yanvar dagi

11 - sonli qaroriga

ILOVA



“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash Tartibi

“BIZNESNI RVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash Tartibi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash tartibi” (keyingi o‘rinlarda – tartib) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Garov to‘g‘risida”gi, “Ipoteka to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minalash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4071-tonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving 2018-yil 28-apreldagi 16/18-tonli qarori bilan tasdiqlangan “Bank xizmatlari iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 3030, 02.07.2018-y.), “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Kredit siyosati va Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjalari qo‘yilgan talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 916; 2000-yil 5-aprel) Nizom hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Tartib – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – bank) tomonidan ajratilgan kredit, ko‘rsatilgan lizing xizmati hamda bank kafolati uchun taqdim qilinadigan ta’minotga qo‘yiladigan talablar, garov mulkiga nisbatan garov shartnomalarini rasmiylashtirish va taqiqqa qo‘yish, mustaqil baholovchi tashkilotlarning baholash hisobotiga qo‘yiladigan talablar hamda ta’minot sifatida taqdim qilingan mol-mulkni boshqa mol-mulkka to‘liq yoki qisman almashtirish va majburiyatning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda garovdan chiqarish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Tartib bankning ichki me’yoriy hujjati hisoblanib, uning talablariga kreditlash amaliyotlari bilan bog‘liq bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari, bank Kredit qo‘mitasi, hududiy Kredit komissiyalari a’zolari va anderryterlar, monitoring jarayonini amalga oshiruvchi mutaxassislar qat’iy ravishda amal qilishlari shart.

4. Ushbu Tartib va boshqa qonunchilik hujjalarda nomuvofiqlik kuzatilgan taqdirda yuridik jihatdan yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjalarni qoidalari amal qilinadi.

5. Tartib talablariga rioya qilinmagan holda kredit ta’minoti sifatida taqdim qilingan mol-mulk garovdan chiqarilgan taqdirda mas’ul shaxslar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari muvofiq belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

2-bob. Kredit ta’minotiga qo‘yiladigan talablar

6. Bank tomonidan kreditlar mol-mulk va qimmatli qog‘ozlar garovi, bank va sug‘urta tashkilotlari kafolati, uchinchi shaxs kafilligi, kredit qaytmasligi xatarining bank foydasiga qilingan sug‘urta polisi va ta’minotning qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa turlari asosida beriladi.

7. Ta’minot kreditni qaytarishning ikkilamchi manbai hisoblanadi va ta’minotga kredit qoplanishining asosiy manbai sifatida qaralmasligi lozim. Kreditni qaytarishning

asosiy manbai xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun ularning faoliyati davomida olgan moliyaviy daromadlari, jismoniy shaxslar uchun esa ularning mehnat faoliyati davomida olgan va boshqa daromadlari hisoblanadi.

8. Quyidagilar kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin:

depozitlarda turgan erkin almashiniladigan xorijiy valyuta yoki milliy valyutadagi pul mablag'lari garovi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatli qog'ozlari garovi;

avtotransport vositalari, maxsus va qurilish texnikalari, qishloq xo'jaligi texnikalari garovi;

ko'char va ko'chmas likvidli mol-mulklar garovi;

banklar va sug'urta tashkilotlarining kafolati;

sug'urta tashkilotlari polislari;

"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning kafilligi;

uchinchi shaxs kafilliklari (kafillik beruvchi uchinchi shaxs moliyaviy hisobotlari barcha muhimilik jihatlari bo'yicha uning moliyaviy holatini va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini haqqoniy aks ettirishi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelishi zarur);

mahsulotlar eksportidan kelajakda tushadigan tushumlar;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mol-mulklar garovi.

9. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklar quyidagi talablarga javob berishi shart:

boshqa garovdan va majburiyatdan holi bo'lishi (mijozga xizmat ko'rsatayotgan bir bank bo'linmasi doirasida olingan kreditlarning ta'minoti sifatida navbatdagi garovga olingan holatlar bundan mustasno);

likvidli bo'lishi ya'ni tez sotish orqali pul mablag'iga aylantirish imkoniyati mavjudligi (bunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4071-soni qarori talablaridan kelib chiqqan holda, kredit qarzdorligini so'ndirish maqsadida undiruvga qaratilgan garov mulki qo'shimcha baholanmasligi, bank va qarzdor o'rtaida tuzilgan garov (ipoteka) shartnomasida ko'rsatilgan narx bo'yicha sotilishi, garov mulkini sotish bozor narxiga erishilgunga qadar sotish narxini bosqichma-bosqich pasaytirish mexanizmini qo'llagan holda amalga oshirilishi va bu sotish narxi hisoblanishi lozim);

uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi);

nazorat qilib turish imkoniyati mavjud bo'lishi;

garovga qo'yuvchida garov obyektiga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish uni tasarruf etish va garovga qo'yish huquqi mavjud bo'lishi;

egalik huquqi umumiy bo'lgan mol-mulkni garovga olish rejalashtirilgan hollarda barcha mulkdorlarning yozma roziligi mavjud bo'lishi;

kredit ta'minoti sifatida ko'chmas mulk garovi taqdim etilsa, bino va inshootlar ipotekasi bilan bir vaqtida, ular joylashgan yer uchastkasi va/yoki undan foydalanish huquqi bilan ipotekaga berilishi (ko'p kvartralari uylardagi kvartiralar yoki ko'p qavatli noturar bino-inshootlarda birinchi qavatdan yuqorida joylashgan ko'chmas mulklar bundan mustasno);

garov obyekti "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq baholangan bo'lishi;

kredit ta'minotiga turar joy garovga qo'yilayotgan bo'lsa, u holda bank mutaxassislari tomonidan ushbu garovga qo'yilayotgan turar joy garovga qo'yuvchi fuqaroning yagona turar joyi emasligi, ushbu turar joyda hech kim ro'yxatda turmasligi o'r ganilishi lozim (ipoteka kreditlari bundan mustasno).

10. Quyidagilar ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas:

bank qimmatli qog'ozlari garovi;

yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalari hamda ulushlari garovi;

kelajakdagagi pul tushumlarini kredit ta'minoti sifatida olish;

ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan asbob-uskunalar (kredit qarzdorligi evaziga bank balansiga olingan mulklar, shuningdek, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan uskunalar ular joylashgan bino/yer bilan birgalikda ta'minotga taqdim etilgan holatlar bundan mustasno);

ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshgan yengil avtotransport vositalari, qishloq xo'jaligi texnikalari va maxsus texnikalar (ekskovator, yuk tashuvchi maxsus texnikalar, kran va boshqalar)ni garovga olish (kredit qarzdorligi evaziga bank balansiga olingan mulklar, shuningdek, qo'shimcha ta'minot sifatida olish holatlari bundan mustasno);

byudjet tashkilotlari kafilligi (XUJMSH va Boshqaruv kompaniyalarga ajratiladigan kreditlar uchun taqdim etilgan kafilliklar bundan mustasno);

to'lovga qobiliyatsiz, moliyaviy barqaror bo'limgan, nosog'lom hamda doimiy pul oqimiga ega bo'limgan yuridik shaxslarning, yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan tadbirkorlik subyektlarining kafilliklari;

nolikvid, kelgusida sotilishi qiyin bo'lgan mulklar, oson buzilishi, tez qadrsizlanishi yoki boshqa salbiy omillar ta'sirida qiymatini yo'qotishi mumkin bo'lgan mol-mulklar garovi;

tarixiy, madaniy yoki boshqa qadriyatlarga mansubligi sababli davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy lashtirilishi hamda sotib olinishi mumkin bo'limgan mol-mulklar garovi;

doimiy ro'yxatda fuqarolar mavjud bo'lgan uy-joylar (bank tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlari uchun ta'minot sifatida taqdim etiladigan uy-joylar bundan mustasno);

uy jihozlari va idishlar, kiyim-kechak hamda qarzdorning oilasi normal hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan boshqa buyumlar;

zarar ko‘rib ishlovchi, nolikvid balansga ega xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kafilligi (likvidli ta’minot mavjud bo‘lib, kafillik qo‘shimcha ta’minot sifatida qabul qilinish holatlari yoki ustuvor (bazaviy) tarmoqlarning kafillikkari bundan mustasno);

nodavlat va notijorat tashkilotlarining kafilligi;

alohida tashqi tomondan kirish imkonini bo‘lmagan obyektlar, obyekt ichidagi alohida binolar (literlar);

muomaladan chiqarilgan mol-mulklar garovi;

boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan mol-mulklar/talablar garovi;

korxona va tashkilotlar ichida joylashgan hamda alohida chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan bino-inshootlar garovi;

tegishli kadastr hujjatlari (tasarruf etish huquqi) mavjud bo‘lmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tmagan bino va inshootlar garovi;

chet elda joylashgan mol-mulklar;

masjid, cherkov va shunga o‘xhash diniy obyektlar;

bahsli (nizoli) holatda bo‘lgan (sud jarayoni davom etayotgan) mulklar (ushbu holat mysud.uz sayti orqali tekshiriladi);

qisman yoki to‘liq davlat tasarrufidagi bo‘lgan dehqon va savdo bozorlari;

kadastr hujjatlariga asosan yerga bo‘lgan huquq turi aniqlanmagan ko‘chmas mulklar;

qurilishi tugallanimagan bino-inshootlar, shu jumladan, ko‘p-qavatli uylar (ko‘p-qavatli uy-joy qurish uchun kredit berilayotganda ipoteka to‘g‘risidagi shartnomada majburiyatni mazkur uy-joyning o‘zi bilan ta’minalash bundan mustasno);

qurilishi tugallanimagan bozor/savdo komplekslari (bozor/savdo komplekslarini qurish uchun kredit berilayotganda ipoteka to‘g‘risidagi shartnomada majburiyatni mazkur mulklarning o‘zi bilan ta’minalash bundan mustasno);

kelgusida buzilishi yoki qayta qurilishi kutilayotgan bino/inshootlar garovi;

juda tor doirada foydalanishga mo‘ljallangan mulklar garovi (masalan mini-sexlar, uskunalar, dastgohlar va boshqalar);

suv, havo va temir yo‘l transporti vositalari garovi;

xom g‘isht, paxsa va sinch devorlardan tashkil topgan ko‘chmas mulklar.

11. Kredit ta’minotiga ko‘chmas mulklar, transport vositalari, qishloq xo‘jalik texnikasi va tovar-moddiy boyliklar garovi rasmiylashtirilayotganda mulk egasidan ushbu mulklarning haqiqatda mavjudligi, hisobining o‘rnatilgan tartibda yuritilishi, ularga nisbatan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, texnik shartlari ko‘rsatilgan pasportlari va ushbu mol-mulklar belgilangan tartibda vakolatli organlar ro‘yxatida turganligi haqida tegishli ma’lumotlar talab qilib olinishi shart.

12. Kredit ta’minotiga depozitlar, sug‘urta polisi va boshqa ta’minot turi rasmiylashtirilayotganda, ajratilayotgan kredit va ta’minot muddatlarining o‘zaro

mutanosibligi ta'minlanishi shart.

13. Kredit ta'minoti sifatida litsenziyaga ega bo'lgan sug'urta tashkilotining kreditlarni qaytmaslik xatari sug'urtasi ham xizmat qilishi mumkin. Sug'urta tashkilotining kreditni qaytmaslik xatari sug'urtasi ajratilayotgan kredit ta'minoti summasining ko'pi bilan 50 foizingacha bo'lgan miqdorda olinishi mumkin.

14. Kredit ta'minotiga sug'urta polislari rasmiylashtirilishidan avval sug'urta tashkilotining moliyaviy holati barqarorligini yoki yuqori reyting darajasiga egaligini tasdiqllovchi hujjatlar va faoliyati yuzasidan tegishli litsenziya mavjudligi o'rganilishi hamda sug'urta kompaniyasining Bosh ofisi tomonidan berilgan ishonchnomalar talab qilib olinishi lozim.

15. Kredit ta'minotiga uchinchi shaxs kafilligi taqdim etilsa, kafillik ajratilayotgan kredit ta'minoti summasining ko'pi bilan 50 foizingacha bo'lgan miqdorda bo'lishi shart. Kredit ta'minoti summasining 50 foizi mol-mulk garovi bilan ta'minlangan hollarda qo'shimcha ravishda kredit umumiy summasining 100 foizi miqdorida uchinchi shaxs kafilligi taqdim qilinishi mumkin.

16. Bank tizimida 100 foiz uchinchi shaxs kafilligi yoki sug'urta polisi bilan kreditlar ajratish taqiqlanadi. Istisno tariqasida jismoniy shaxslarga, ko'p qavatli uy-joylar fondini boshqarishni tashkil etish maqsadida XUJMSH va Boshqaruvi kompaniyalariga, ustuvor (bazaviy) tarmoqlarga, bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan mahsulot pasportiga asosan ajratiladigan kreditlar ta'minoti sifatida 100 foiz uchinchi shaxs kafilligi yoki sug'urta polisi olinishi mumkin.

17. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha kafillik shartnomasi kafil shaxs bankka kelgan holda, bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi va yuristi ishtirokida imzolanishi lozim.

18. Yuridik shaxs kafilligi taqdim etilayotganda uning to'lov qobiliyatini tahlil qilish jarayonida korxona balansi nolikvidligi yoki zarar bilan ishlayotganligi aniqlansa, shuningdek korxona jami aktivlari beriladigan kafillik summasidan kam bo'lsa yoki o'z majburiyatlarida bank kreditlari bo'yicha qarzdorlik berilayotgan kafillik summasidan ortiq bo'lsa, ushbu kafillik kredit ta'minoti sifatida qabul qilinmaydi.

19. Kafillik asosida ajratilgan kreditlar monitoringi natijasida kafilning to'lov qobiliyati yomonlashganligi, ya'ni so'nggi moliyaviy hisobotlari bo'yicha balans nolikvidligi yoki zarar bilan ishlab kelayotganligi aniqlangan taqdirda, kreditga boshqa ta'minot turini talab qilish yoki kreditni muddatidan oldin undirish choralarini ko'rildi.

20. Loyihani moliyalashtirish kredit ta'minoti to'liq rasmiylashtirilib, garovga bo'lgan huquq to'liq bank ixtiyoriga o'tganidan so'ng amalga oshiriladi.

21. Garov mulki nolikvid yoki uning bahosi sun'iy ravishda oshirilganligi aniqlangan taqdirda, bank garov mulkini qabul qilishni rad etish huquqiga ega.

22. Garov obyekti qurilishi loyihasiga o'zgartirish kiritish (qo'shimcha qurish, ta'mirlash va buzish) bank Kredit qo'mitasi roziligi bilan amalga oshiriladi. Ushbu holat notarial tasdiqlangan garov shartnomasida ko'rsatilishi shart. Mazkur holatda garov

obyektining bozor qiymati qayta baholanishi va garovga qo‘yuvchi bilan garovga oluvchi o‘rtasida tuzilgan qayta kelishuv dalolatnomasiga muvofiq notarial tasdiqlangan garov shartnomasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi shart.

23. Mulk garovi ostida kreditlashda garov shartnomasi yozma ravishda tuzilishi va notarial tarzda guvohlantirilishi shart. Shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi va “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonunlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, unda garovga qo‘yilayotgan mulkka nisbatan egalik huquqi, bahosi, turgan joyi, saqlanish tartibi va boshqa ahamiyatli shartlar bataysil ko‘rsatilishi lozim. Ko‘chmas mulk, (bino, inshoot), avtotransport vositalari, texnologik uskunalar, jihozlar va boshqa bank xazinasida saqlash mumkin bo‘lmasan har qanday turdag'i qimmatliklar garovga olinganda garov shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanishi shart. Ipoteka kreditlarining ta‘minoti sifatida uy-joylarni garovga (ipotekaga) olishda qonun asosida ipoteka shartlarini qo‘llash mumkin. Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, kredit mablag‘laridan foydalangan holda olinayotgan yoki qurilayotgan uy yoki kvartira qarz oluvchining uy yoki kvartiraga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab ipotekaga qo‘yilgan deb hisoblanadi. Uy yoki kvartira olish yoxud qurish uchun kredit bergan bank mazkur ipoteka bo‘yicha ipotekaga oluvchi hisoblanadi. Ushbu holatlarga “Ipoteka to‘g‘risida”gi qonunning 3-, 13- va 64-moddalari asos bo‘ladi.

24. Qimmatli qog‘ozlarni garovga olishda ularning asosiy rekvizitlari shartnomada ko‘rsatib o‘tilishi lozim (emitent, nominal qiymati va bozor qiymati, chiqarilish shartlari va boshqalar). Agar, garovga qo‘yiladigan qimmatli qog‘ozlar “hujjatli shaklda” bo‘lsa, garovga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar saqlash uchun bankka topshiriladi, “hujjatsiz shaklda” bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar bankning depozitariyadagi “Depo” hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Garov sifatida qabul qilingan qimmatli qog‘ozlar kredit bo‘yicha foizlari va kreditning asosiy summasi to‘liq so‘ndirilgandan so‘ng qaytariladi. Kredit to‘liq so‘ndirilgunga qadar garovga olingan qimmatli qog‘ozlarning qisman qaytarib berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar garov sifatida qabul qilinmaydi.

25. Qimmatbaho buyumlar (taqinchoqlar) garovga olinishida bunday boyliklar sifati va haqiqiyligi bo‘yicha ekspertiza qilinishi hamda baholash huquqiga ega bo‘lgan tashkilot tomonidan baholash xulosasi asosida garovga olinishi mumkin. Qimmatbaho buyumlarni (taqinchoqlarni) garovga olish shartnomasi notarial tasdiqlanishi shart.

26. Garovga qo‘yiladigan mulkning garovga qo‘yish huquqlari unga doir hujjatlarning asl nusxasini o‘rganish, shartnomalar imzolovchi tarafning vakolatliligini tekshirish orqali aniqlanadi. Qonunga ko‘ra, ulushli mulk garovga olinganda ulushga ega bo‘lgan barcha mulkdorlarning roziligi talab qilinadi.

27. Garovga qo‘yuvchi yuridik shaxs davlat ulushiga ega bo‘lsa, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki vakolatli organ yohud shaxs rozilgisiz bu mulkni garovga olish taqiqlanadi. Ulushli jamiyatlar mulkdorlarining shunday bitimni tuzishga vakolatli bo‘lgan

boshqaruv organi qarori mavjud bo‘lganda mulk garovga olinishi mumkin. Quyidagi hollarda:

aksiyadorlik jamiyat shaklidagi yuridik shaxs tomonidan mulklar garovga qo‘yilganda mulkniga garovga qo‘yishga rozilik O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni talablariga muvofiq uning vakolatli boshqaruv organining qarori asli yoki notarial tasdiqlangan nusxasini bankka taqdim qilinishi;

mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi yuridik shaxs tomonidan mulklar garovga qo‘yilganda rozilik O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq uning vakolatli boshqaruv organning qarori asli yoki notarial tasdiqlangan nusxasi bankka taqdim qilinishi;

xususiy korxona mulklari garovga olinganda mulkdorlar roziligi O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida olinishi lozim. Shu kabi, boshqa mulkchilik shaklidagi korxonalarning mulkdorlari roziligi amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda olinishi lozim.

28. Kreditlash xatarini kamaytirish maqsadida yangi tashkil etilgan (tashkil etilganiga bir yildan oshmagan) yoki oxirgi 12 oy davomida faoliyat yuritmayotgan tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kredit mablag‘lari 125 foiz likvidli garov (molk-mulk) ta’mnoti bilan ta’milanishi lozim (ushbu talab bankning doimiy pul tushumiga ega mijozlari tomonidan faoliyatini kengaytirish maqsadida tashkil qilgan yangi (qo‘shimcha) korxonalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar doirasida ajratiladigan kreditlarga nisbatan tatbiq qilinmaydi).

29. Kredit hisobidan sotib olingen mulk ajratilayotgan kredit muddatidan kelib chiqqan holda quyidagicha garov ta’mnoti sifatida olinadi:

o‘ttiz olti oygacha (36-oy ham kiradi) ajratilgan kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo‘yicha kredit hisobidan sotib olingen mulk o‘z qiymatining 80 foizigacha miqdorda garov predmeti bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bunda, kredit hisobidan sotib olinayotgan yengil avtotransport vositalari ko‘pi bilan 80 foizgacha, maxsus texnikalar, qishloq xo‘jaligi texnikalari, yuk o‘zi ag‘daruvchi texnikalar (samosvallar) ko‘pi bilan 60 foizgacha, uskunalar, issiqxonalar, muzlatgichlar (xolodilnik) o‘rnatalilib ishga tushirilgandan so‘ng, ko‘pi bilan kredit qiymatining 40 foizigacha garov sifatida qabul qilinishi mumkin.

Bunda, kredit ajratilgunga qadar kredit mablag‘i kamida 125 foiz miqdorida ta’mnot bilan ta’milanishi shart;

o‘ttiz olti oydan yuqori muddatga ajratilgan kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo‘yicha kredit hisobidan sotib olingen mulk o‘z qiymatining 60 foizigacha miqdorda garov predmeti bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bunda, kredit hisobidan sotib olinayotgan yengil avtotransport vositalari ko‘pi bilan 60 foizgacha, maxsus texnikalar, qishloq xo‘jaligi texnikalari, yuk o‘zi ag‘daruvchi texnikalar (samosvallar) ko‘pi bilan 50 foizgacha, uskunalar, issiqxonalar, muzlatgichlar (xolodilnik) o‘rnatilib ishga tushirilgandan so‘ng ko‘pi bilan kredit qiymatining 30 foizigacha garov sifatida qabul qilinishi mumkin.

Bunda, kredit ajratilgunga qadar kredit mablag‘i kamida 125 foiz miqdorida ta’minot bilan ta’milanishi shart.

30. Import shartnomasi (akkreditiv) asosida sotib olinayotgan tovarlarga nisbatan egalik qilish huquqi garovga olinganda import shartnomasi qiymatining 40 foizigacha miqdorda garov predmeti bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunda, mazkur talab import shartnomada aks ettirilishi hamda tovarlar O‘zbekiston hududidagi belgilangan manzilga yetib kelishi sug‘urtalangan bo‘lishi kerak.

31. Eksport shartnomasi (akkreditiv) asosida bank tomonidan ajratiladigan kreditning 40 foizigacha hamda to‘qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari eksporti uchun ochilgan akkreditivlar bank tomonidan ajratiladigan kreditning 80 foizi qiymatida baholangan holda kredit ta’minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu turdaggi eksport shartnomasi ta’minotga olinishida kredit ta’minotiga bank tomonidan akseptsiz undiruv qaratish tartibi kredit ajratish va akkreditiv ochish shartnomasida ko‘zda tutilishi lozim.

Eksport akkreditivi kredit ta’minoti sifatida olinishi uchun mijoz haqiqatda oxirgi 2 yil davomida eksport akkreditivi instrumentidan foydalangan va akkreditiv yuqori xalqaro reytingga ega bo‘lgan banklar tomonidan chiqarilgan yoki tasdiqlangan bo‘lishi, shuningdek, ochilgan eksport akkreditivi bo‘yicha mahsulot (tovar) yuklab jo‘natilgan va akkreditivni ijro etuvchi bank tomonidan to‘lovni amalga oshirish tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-228-sonli Farmonining 2-bandiga talablariga muvofiq keladigan eksportchi korxonalarga aylanma mablag‘larga kredit ajratilishida ham qo‘llanilishi mumkin.

32. Xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo‘yicha kerakli ta’minot miqdorini aniqlashda kamida ushbu kreditning asosiy qarzini qaytarish bo‘yicha imtiyozli davr muddati davomidagi xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursi o‘sishi bo‘yicha Markaziy bankning prognozi inobatga olinishi lozim.

Bank xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar bo‘yicha olingan garov mulklari joriy holati va bozor bahosini ochiq ma’lumotlar asosida bir yilda bir marta qayta baholab borishi mumkin. Bunda, garovga qo‘yuvchi bilan garovga oluvchi o‘rtasida tuzilgan qayta kelishuv dalolatnomalariga muvofiq notarial tasdiqlangan garov shartnomasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi shart.

33. Bank tomonidan qarzdorlar bilan tuzilgan garov shartnomalari bo‘yicha garov reyestriga garov turlarini o‘z vaqtida to‘g‘ri va sifatli kiritib borilishi, o‘zgartirishlar

amalga oshirilishi hamda majburiyatlar bajarilganda belgilangan muddatlarda yozuvlar garov reyestridan chiqarib borilishi ta'minlanishi lozim.

34. Kredit qarzdorligini qoplashga ta'minotning yetarliligi bo'yicha joriy bozorni o'rganish, qo'shimcha ta'minot talab qilish kabi tez va to'g'ri qaror qabul qilish vazifasi bank xizmatlari ofisi rahbari, o'rinosari hamda kredit ajratilishiga mas'ul xodimlari zimmasiga yuklatiladi.

3-bob. Garovga qo'yilayotgan mulkni baholash tartibi

35. Mol-mulkarni garovga olish, garov shartnomasini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirishning dastlabki bosqichi – bu garov obyektini baholashdir. Garovga qo'yilayotgan mulkarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

garov mulkini mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholash;

garov mulki mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholanganidan so'ng, garov mulkining qiymatini garovga qo'yuvchi/qarz oluvchi bilan kelishish va kelishuv dalolatnomasini rasmiylashtirish.

36. O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga asosan, garov narsasi (mulki)ni baholash majburiy hisoblanadi. Baholash - baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litzenziyaga ega bo'lgan baholash tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Baholash obyektini baholashdan o'tkazish natijalari baholash to'g'risidagi hisobot bilan rasmiylashtiriladi.

37. Baholash to'g'risidagi hisobotda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

baholash to'g'risidagi hisobot tuzilgan sana va uning tartib (ro'yxatdan o'tkazilganlik) raqami;

obyektni baholashdan o'tkazish uchun asos;

obyektni baholash maqsadi;

obyektning aniqlanadigan qiymati turi;

baholovchi tashkilot nomi, joylashgan yeri (pochta manzili to'g'risidagi ma'lumotlar;

obyektni baholashdan o'tkazgan baholovchining (baholovchilarning) malaka sertifikati to'g'risidagi ma'lumotlar;

obyekt qiymatini aniqlash sanasidagi aynan identifikasiya qilish imkonini beradigan tavsifi, shuningdek baholash obyekti egasining rekvizitlari;

baholash standartlari, ulardan foydalanish uchun asos, baholash obyektni baholashdan o'tkazishda foydalanilgan ma'lumotlar hamda mazkur ma'lumotlar olingan manbalar ko'rsatilgan holda ro'yxat;

baholash obyektni baholashdan o'tkazish izchilligi, shuningdek olingan natijani qo'llash chegaralari;

baholash obyekting qiymati aniqlangan sana;

obyekt qiymati aniqlanishida ishlatilgan hisob-kitoblar (xarajat, daromad va qiyosiy yondashuv), bunda qiyosiy yondashuvni aniqlashda qo'llanilgan va asos bo'lgan rasmiy

analoglar mavjudligi va loyiha uchun ixtisoslashtirilgan bino-inshootlar bo'yicha (analoglar mavjud bo'limgan hollarda) xarajatlar yondashuvi bilan amalga oshirish;

baholovchi tashkilot foydalanadigan hamda baholash obyektining miqdor va sifat xususiyatlarini belgilaydigan hujjatlar ro'yxati. Kredit olish uchun ariza topshirilgan vaqtida mustaqil baholash hisoboti tuzilgan sana 6 oydan oshmagan bo'lishi kerak.

38. Baholanayotgan obyekt alohida binolardan iborat bo'lsa, baholash hisobotida kadastr hujjatlariga muvofiq bino-inshootlarning har biri alohida baholangan bo'lishi shart. Agarda mustaqil baholovchi tomonidan bino-inshootlar va uskunalar birgalikda kompleks ravishda baholangan taqdirda, baholash hisobotida bino-inshoot va uskunalarning narxlari alohida ko'rsatib o'tilishi zarur.

39. Baholanayotgan obyekt uskunaldan iborat bo'lsa, uskunalarning ishchi holatda ekanligi, ishlab chiqarilgan yili va davlati, erkin muomalaga chiqarish (IM-40) bojxona rejimiga o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjat yoki oldi-sotdi shartnomalar mavjudligiga e'tibor qaratish lozim. Bunda mustaqil baholovchi tomonidan aniqlangan qiymat uskunalarning sotib olingan bojxona yuk deklaratsiyasi (keyingi o'rinnlarda - BYuD) yoki import shartnoma/oldi-sotdi shartnoma qiymatidan yuqori bo'lsa, bu holatda mustaqil baholovchi hisoboti qabul qilinmaydi.

40. Kredit hisobiga sotib olinadigan ko'chmas mulk ta'minot sifatida garovga taqdim etilishida, dastlab ushbu mulk bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti olinadi hamda tomonlar o'rtasida mulkni sotish bo'yicha rasmiylashtirilgan oldi-sotdi shartnoma qiymati mustaqil baholovchi qiymatidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

41. Mustaqil baholovchi tashkilotning baholash xulosasida garov obyekti qiymatini aniqlashda qo'llanilgan uslub va hisob-kitoblar, tasdiqlovchi hujjat va ma'lumotlar mavjud bo'limasa, bank tomonidan ushbu hujjatlar va ma'lumotlar talab qilib olinishi kerak.

42. Baholash xulosasi qonun talablariga javob bermagan yoki baholovchi tomonidan belgilangan mulk qiymatining bozor bahosiga to'g'ri kelishiga shubha tug'ilgan hollarda, bunday xulosani qabul qilmaslik yoki baholash xulosasida xarajat, daromad va qiyosiy usullar orqali aniqlangan mulk bozor qiymatining ishonchlilagini tekshirish uchun belgilangan tartibda boshqa mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan tavsiyaviy xulosa olinishi mumkin. Tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan mulk qiymati mustaqil baholash hisobotida ko'rsatilgan qiymatdan past bo'lgan taqdirda, baholash komissiyasi tomonidan garov obyektining garov qiymatini yetarlilagini belgilash bo'yicha diskont miqdori tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi. Tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymat bo'yicha mijozda e'tiroz tug'ilgan taqdirda, mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti belgilangan tartibda ekspertiza qilinishi mumkin.

43. Garov mulki mavjudligini, uning holatini joyiga chiqqan holda o'rganish baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Baholash komissiyasi hududiy boshqarma boshlig'ining buyrug'iga asosan tuziladi. Baholash komissiyasi tarkibi mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan mutaxassislardan iborat bo'lishi shart. Baholash komissiyasi a'zosi vaqtinchalik ishda bo'limgan (mehnat ta'tili, mehnatga layoqatsizlik

davrda, xizmat safari va boshqalar) davrda, uning vazifasini vaqtincha bajarish yuklatilgan xodim (vazifani yuklash to‘g‘risidagi ichki buyruqqa asosan) baholash komissiyasi a’zosi sifatida qatnashadi va dalolatnomani imzolaydi.

44. Baholash komissiyasi mustaqil organ hisoblanadi va mol-mulkni yakuniy garovga olish qiymati ushbu komissiya tomonidan belgilanadi. Baholash komissiyasi ish faoliyatiga va qaror qabul qilish jarayoniga aralashish taqiqlanadi. Ayrim hollarda kreditlash xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha qaror qabul qiluvchi vakolatli kollegial organ tomonidan baholash komissiya aniqlagan mol-mulk qiymati qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarilishi mumkin.

45. Garovga taklif etilayotgan mol-mulk joylashgan joyga qarz oluvchi/mulk egasi va komissiya a’zolari yoki ulardan biri chiqib, obyektning kadastr hujjatlari va baholovchi tashkilotning baholash xulosalari bilan solishtirgan holda o‘rganiladi va baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma baholash komissiya a’zolari va garovga qo‘yuvchi tomonidan imzolanib, taraflarning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar garovga qo‘yuvchi uchinchi shaxs bo‘lsa, dalolatnoma uch tomonlama, ya’ni qarz oluvchi, garovga qo‘yuvchi va bankning baholash komissiyasi a’zolari tomonidan imzolanadi va muhrlar bilan tasdiqlanadi (garov egasi jismoniy shaxs bo‘lgan hollarda muhr talab etilmaydi). Bunda baholash dalolatnomasi dastlab baholash komissiyasi tomonidan rasmiylashtirilib, kreditni ajratish bo‘yicha vakolatli kollegial organ tomonidan qaror qabul qilingandan so‘ng dalolatnoma qarz oluvchi va mulk egalari tomonidan imzolanishi ham mumkin. Kredit ta’minoti sifatida ikki va undan ortiq yuridik va/yoki jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar taqdim etilgan holatlarda garov bahosini kelishuv dalolatnomasi alohida alohida tuzilishi mumkin.

Komissiya a’zolari tomonidan garov mulki bahosini kelishishda quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

garov mulki uzoq muddat saqlanish xususiyatiga ega bo‘lishi;

garov mulkining moddiy va ma’naviy eskirish darajasi;

garov mulki narxining nisbatan barqarorligi;

garov mulkining keng iste’mol doirasiga egaligi, uning tez va erkin sotilishi hamda likvidli bo‘lishi;

garov obyekti joyiga chiqib o‘rganilganida, uning kadastr hujjatlariga mutanosibligi;

garovga taklif etilayotgan mulkda uchinchi shaxslarning ulushi borligi, unga nisbatan taqiq qo‘yilmaganligi, avval boshqa kreditorlar oldida majburiyatlar bo‘yicha garovga qo‘yilmaganligi, nizoli emasligi;

garovga qo‘yilayotgan mulk ko‘char mulk (asbob-uskuna, avtotransport vositalari va boshqalar) bo‘lsa, mulk ishlab chiqarilgan yili, texnik hujjatlar bo‘yicha barcha qismlar mavjudligi (butlanganligi), ishlab chiqarish quvvati;

garovga qo‘yilayotgan mulk avval foydalanilgan bo‘lsa, amortizatsiya ko‘rsatkichlari va baholanayotgan paytdagi haqiqiy ishchi holati.

46. Garov obyektini ko‘zdan kechirish natijalari asosida mazkur tartibning

2-ilovasiga muvofiq garov obyektini baholash dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomaga garov obyektini ko‘zdan kechirish jarayonida olingan fotosuratlar (otosuratda komissiya a’zolari yoki ulardan biri tushgan bo‘lishi lozim) ilova qilinishi zarur.

47. Baholash dalolatnomasi quyidagilarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim:

- baholash o‘tkazilayotgan hudud va baholash sanasi;
- qarz oluvchiga xizmat ko‘rsatayotgan bankning hududiy bo‘linmasi (BXO) nomi;
- qarz oluvchi nomi, kredit summasi va uning valyutasi;
- kredit uchun zarur bo‘lgan ta’milot miqdori;
- ta’milot egasi, ta’milot nomi va uning manzili, ta’milot egasi;
- ko‘chmas mulk kadastr raqami, mulkning umumiy va qurilish osti maydoni;
- ko‘char mulk ishlab chiqarilgan yili;
- mustaqil baholash tashkiloti nomi va u tomonidan aniqlangan qiymat;
- tavsiyaviy xulosada ko‘rsatilgan qiymat;
- bank, qarz oluvchi va garov egasi tomonidan kelishilgan (bank tomonidan qabul qilinadigan) qiymat;
- mustaqil baholovchi hisobotida ko‘rsatilgan yoki tavsiyaviy xulosada ko‘rsatilgan qiymat bo‘yicha qo‘llanilgan diskont miqdori (foizda);
- mol-mulklar qiymatining kreditni qoplashdagi nisbati (foizda);
- bank baholash komissiya a’zolari lavozimi va ism-sharifi;
- garovga qo‘yuvchi va qarz oluvchi vakolatli shaxslari nomi.

4-bob. Baholash komissiyasi tomonidan garov obyektini joyiga chiqqan holda o‘rganish tartibi

48. Baholash komissiyasi tomonidan kredit ta’miloti uchun taqdim etilayotgan mol-mulklar kunduz kuni joyiga chiqqan holda vizual ko‘rikdan o‘tkaziladi. Kredit ta’miloti sifatida taqdim etilayotgan mol-mulklar bevosita komissiya a’zolari yoki ulardan biri tomonidan joyiga chiqqan holda o‘rganilishi shart.

49. Baholash komissiyasi tomonidan kredit ta’miloti sifatida garovga taqdim etiladigan har qanday mulkning vizual ko‘rigi garov obyekti joylashgan joyida amalga oshirilishi, uning haqiqatda mavjudligi, identifikatsion belgilari, saqlash va foydalanish shartlari, ishchi holati hamda foydalanishga yaroqliligi tekshirilishi shart.

50. Har bir garov obyekti alohida suratga olinishi, xususan uning individual xususiyatlari, joylashuvi va obyektning yon atrofi aks ettirilishi lozim (asbob-uskunalarining identifikatsion xususiyatlari – ishlab chiqaruvchi zavod nomi, seriya raqami, ishlab chiqarilgan sana, ishlab chiqarilgan mamlakat va egalik huquqini tasdiqlovchi hujjalarga muvofiq bo‘lishi lozim).

51. Garov obyektini rasmga olish jarayonida obyektning tashqi ko‘rinishi har tomonlarna olinishi, agar ko‘zdan kechirilayotgan obyekt ko‘chmas mulk bo‘lsa, unda albatta ichki ko‘rinishi ham suratga olinishi zarur, xususan binoning ichki pardoz va nuqsonli joylari (darz ketgan, shikastlangan joylar va boshqalar) ham o‘z aksini topishi

lozim.

52. Ko'chmas mulk obyektlarining fotosuratlari Google Earth (Google Map va boshqalar) geolokatsion xizmatlar orqali nusxalash yo'li bilan fotosuratlar olish zarur. Bunday fotosuratlar obyektning aniq joylashuvini va barcha qismlari (bino-inshoot va boshqalar)ni tashqi tomondan ko'zdan kechirish hamda yaqin hududda joylashgan obyektlarni tahlil qilish, garov obyektidan alohida foydalanish imkoniyati mavjudligini, ko'chmas mulkning boshqa qismlaridan alohida bo'lgan kirish-chiqish mumkinligini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Geolokatsion xizmatlar orqali olingan lokatsiya fotosuratlari baholash dalolatnomaga ilova qilinishi lozim.

Bino-inshootlarning kamida 20 ta ko'rinishda suratga olinishi (10 tasi tashqi va 10 tasi ichki ko'rinish) lozim. Zaruriy hollarda garov obyektning holatidan kelib chiqib suratlar miqdori ko'proq bo'lishi mumkin.

53. Agar garov obyekti bir necha liter (blok)lardan iborat bo'lib, kredit ta'minoti sifatida faqat bittasi yoki bir nechta taqdim etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, baholash komissiyasi tomonidan garovga berilayotgan obyektning qismlariga alohida kirish yo'lklari yoki servitut huquqi (servitut huquqi – bu yer egasining muayyan hollarda qo'shni yer egasiga tegishli yerdan foydalanishni talab qilish huquqidir) mavjudligi tekshirilishi lozim. Garov obyektiiga nisbatan servitut huquq mavjud bo'lмаган yoki alohida tashqi tomondan kirish imkonini bo'lмаган obyektlar yoki obyekt ichidagi binolar (literlar) garovga olinishi mumkin emas. Kredit ajratish jarayonida bunday huquq mavjud bo'lмаган hollarda, qarz oluvchi/garovga beruvchi tomonidan garov (ipoteka) shartnomasi rasmiylashtirilguniga qadar olinishi mumkin.

5-bob. Garov obyektlarini suratga olish tartibi

54. Garov sifatida avtotransport (yengil avtomobillar, avtobuslar, maxsus texnikalar va boshqa turdag'i) vositalari taqdim etilganda, ular quyidagicha suratga olinishi shart:

umumiyo ko'rinishi;

old tarafdan ko'rinishi;

orqa tarafdan ko'rinishi;

o'ng yon va chap yon tarafdan ko'rinishi;

avtotransportning bosib o'tgan masofasini ko'rsatuvchi o'chagichi (spidometr yoki maxsus texnikalarda motosoat);

identifikatsiyalovchi shassi (rama), kuzov va dvigatellar (tirkama va yarim tirkamalar bo'lganda) raqami tushirilgan fotosurati.

Avtotransport vositasini ko'zdan kechirish jarayonida uning texnik pasporti asli ko'rilib, fotosuratga olinishi lozim.

55. Garov sifatida bino-inshootlar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

birinchi navbatda binoning tashqi ko'rinishi – bunda bino qayerda joylashgani

haqida tasavvur paydo bo‘lishi uchun, binoning umumiyligi ko‘rinishidagi fotosuratda uning atrofidiagi boshqa, quyi binolar va yo‘llar aks ettirilishi;

binoning tashqi ko‘rinishi suratga olinganda – binoning old tomoni, yon tomonlari va imkoniy bo‘lsa orqa tomonlarining fotosuratlarini bo‘lishi;

bino-inshootlar bir nechta literlardan iborat bo‘lsa, xar bir literlarni aks ettiruvchi alohida fotosuratlar bo‘lishi;

binoning ichki hovli hamda xonalarini rasmiga olishda fotosuratlar ketma - ketlik tartibiga amal qilinishi;

bino-inshootning xonalarini suratga olinganda har bir xonaga kirishni va kamida ikkita burchakdan xonalarning ichki ko‘rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar bo‘lishi lozim.

56. Garov sifatida uskunalar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

uskunalarning yaxlit holda umumiyligi ko‘rinishdagi fotosurati (to‘rt tomonidan);

uskunalarning yakka holda umumiyligi ko‘rinishdagi fotosurati (to‘rt tomonidan);

har bir uskunaning texnik parametrlari ko‘rsatilgan yorlig‘i (birka);

uskunalar ishchi holatda bo‘lsa ularning ishlab turgan paytdagi videosi olinishi ham mumkin.

6-bob. Tovar moddiy zaxiralari (TMZ)ni suratga olish tartibi

57. Garov sifatida tovar moddiy zaxiralari taqdim etilganda tovar moddiy zaxiralari qayerda joylashgan bo‘lsa o‘sha yerda suratga olinadi.

58. Baholash komissiyasi kredit ta’minoti sifatida taqdim etilayotgan mulkning tegishli hujjatlari haqqoniyligi va ushbu mulk real bozor bahosidan kelib chiqib baholanishiga javobgardir. Bunda quyida keltirilgan hujjatlar mavjudligiga e’tibor qaratiladi:

ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha – kadastr hujjatlari (bitimlari bilan birga) nusxasi, ko‘chmas mulkka egalik qilish huquqini tasdiqllovchi guvohnoma nusxasi va yer uchastkasidan foydalanish huquqini belgilovchi hujjatlar nusxalari va boshqa qo‘srimcha hujjatlar;

transport vositalari – transport vositasining texnik pasporti nusxasi;

asbob-uskunalar – bojxona yuk deklaratsiyasi nusxasi (BYuD), uskunaning texnik pasporti, oldi-sotdi shartnoma/import shartnoma va/yoki hisob fakturalari nusxasi;

tovar moddiy boyliklari – TMBlarning dastlabki hisob-kitob hujjatlari, saqlash, tashish (transport ekspeditsiyasi), oldi-sotdi, yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomalar, tovar-transport yuk xatlari nusxalari, garovga qo‘yuvchi shaxsda mavjud bo‘lgan garov uchun mo‘ljallangan tovarlar inventarizatsiyasi yuzasidan dalolatnoma nusxasi va tovar moddiy boyliklarining omborxonada mavjud qoldig‘ini tasdiqllovchi korxona rahbari va bosh hisobchisi imzosi hamda korxona muhri bilan tasdiqlangan ma’lumotnoma.

qimmatli qog‘ozlar va depozitlar – garovga qo‘yuvchi shaxsda mavjud bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar, depozit shartnomalari, depozit shartnomalari nusxalari hamda mulkiy huquqni tasdiqllovchi boshqa hujjatlari.

59. Garovga qo'yuvchining garov obyektiga nisbatan mulkiy huquq mavjudligini tasdiqllovchi hujjatlardan nusxalar olingandan so'ng, mazkur garov obyektiga nisbatan taqiq yoki cheklovlar mavjudligi mijoz bilan ishlovchi menejer tomonidan garov obyektining parametrlariga qarab garov reyestri DUK (www.garov.uz)ga so'rovnama jo'natish orqali aniqlanadi.

60. Yuridik shaxs ustavida yuridik shaxsning aktivlarini boshqalarga begonalashtirishning boshqa shartlari ko'zda tutilgan taqdirda mulkni/moliyaviy aktivni/kafillilikni kredit ta'minoti sifatida taqdim etish borasidagi hujjatlar garovga qo'yuvchining ta'sis hujjatlarida belgilangan talablarga asoslangan holda tuzilishi lozim.

7-bob. Ta'minotning bank tomonidan qabul qilinadigan qiymatini aniqlash

61. Amaliyotda ko'chmas mulk, avtotransport vositalari va asbob-uskunalarining bozor qiymati taqqoslash usuli bilan aniqlanadi, mulk qiymatini baholash quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

· baholanayotgan obyektning aniq tavsiflarini belgilash (ko'zdan kechirish, mustaqil baholash tashkiloti hisoboti va boshqa vositalar yordamida);

· baholanayotgan mulkni yangi va avval foydalanishda bo'lган analoglari bozorini tahlil qilish;

· baholanayotgan mulkka aniq analoglar tanlash;

· narx belgilashga ta'sir etuvchi omillarni belgilash;

· tanlab olingan analoglar va baholanayotgan mulk o'rtaqidagi farqni inobatga olib o'rtacha narx belgilash;

· obyekt qiymati ahamiyatini aniqlash.

62. Garov obyekti qiymatining yetarliligini belgilash to'g'risidagi qarorni qabul qilishda mazkur Tartibning 3-ilovasida ko'rsatilgan diskont miqdorlari doirasida amalga oshirish talab etiladi.

63. Moliyaviy instrumentlar garovga olinganda mazkur Tartibning 4-ilovasida ko'rsatilgan diskont miqdori doirasida amalga oshirilishi talab etiladi.

64. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan hamda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilganiga 6 oydan oshmagagan yuk mashinalari va avtotransport vositalari garovga taqdim etilganda, ularning bank tomonidan qabul qilinadigan qiymati transport vositalarini sotib olganligi to'g'risida hisob fakturada keltirilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi (mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmaydi). Bunda garovga qo'yuvchi tomonidan avtotransport vositalarini sotib olganligi to'g'risida hisob faktura taqdim etilishi hamda hisob fakturada ko'rsatilgan sanadan mijozning kredit ajratish bo'yicha taqdim etgan arizasi sanasigacha bo'lган vaqt 6 oydan oshmagagan bo'lishi shart.

65. Kredit hisobiga sotib olinayotgan, qurilayotgan garov obyektlari kredit ta'minoti sifatida kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng qabul qilinishi mumkin. Bunda ushbu garov obyektlari kredit ta'minoti sifatida taqdim etilishi tomonlar o'rtaSIDA tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi shart. Kredit hisobiga sotib olingan

uskunalarining qiymatini yetarliligini belgilash bo'yicha diskont miqdori mazkur tartibning 29-bandida belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladi.

8-bob. Navbatdagi garov obyektlarini kredit ta'minoti sifatida rasmiylashtirish

66. Navbatdagi garov faqat mazkur mulkdan garov sifatida foydalanayotgan qarzdor (ikki yoki undan ortiq korxonalarga egalik qiluvchi)ga ikkinchi va keyingi kreditlarini olayotgan taqdirda, mijozga xizmat ko'rsatayotgan bir bank bo'linmalari doirasida amalga oshiriladi. Bunda, boshqa tijorat banklarida kredit ta'minoti sifatida garovga olingan mol-mulklar navbatdagi garov sifatida qabul qilinmaydi. Shuningdek, bank tomonidan ajratilgan kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha garovga olingan mol-mulklar, boshqa bank kreditlari uchun navbatdagi garov sifatida foydalanishga ruxsat berilmaydi. Navbatdagi garov shartnomasi rasmiylashtirilishida mol-mulkning oldingi/so'ngi narxi, yangi tuzilayotgan garov shartnomasida ko'rsatilgan mol-mulk narxi bilan bir xil bo'lishi lozim.

67. Mol-mulkning garovdan ozod qismini hisoblashda, ushbu mulk garovga taqdim etilgan kredit (oldin ajratilgan va hozirda mavjud kredit) ta'minot tarkibidagi mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimotidan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi. Buni aniqlashda dastlab ushbu kredit ajratilishida/ma'qullanishida mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimoti aniqlashtirib olinadi, shundan so'ng navbatdagi garov sifatida taqdim etilishi kutilayotgan mulkning ozod qismi hisob kitob qilinadi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

1-misol:

ajratilgan kredit summasi: 100,0 mln.so'm;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 70,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti: 125,0 mln.so'm miqdorida transport vositasi;

garovdan ozod qism aniqlash formulasi:

ta'minot summasi – kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot summasi;

garovdan ozod qism hisob kitobi: $125,0 \text{ mln.so'm} - 70,0 \text{ mln.so'm} * 125\% = 37,5 \text{ mln.so'm}$;

ushbu kredit ta'minotidagi transport vositasining garovdan ozod qismi 37,5 mln.so'mni tashkil etadi.

2-misol:

ajratilgan kredit summasi: 1 000,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti: 800,0 mln.so'm miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

450,0 mln.so'm miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 700,0 mln.so'm;

kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot tarkibi: $560,0 \text{ mln.so'm}$ miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

$315,0 \text{ mln.so'm}$ miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%.

Mulkiy garovning ozod qismini aniqlash formulasi = binoning garovga olingan qiymati – kredit qoldig'iga nisbatan binoning qoplash qismi.

Mulkiy garovning ozod qismini hisob kitobi: 800,0 mln.so‘m – 560,0 mln.so‘m = 240,0 mln.so‘m.

Ushbu kredit ta’minotidagi mulkiy garovning garovdan ozod qismi 240,0 mln.so‘mni tashkil etadi.

68. Mulkiy garovning ozod qismi hisoblanayotgan kreditning (oldin ajratilgan va bugungi kunda mavjud) ta’minot tarkibida Tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlash davlat jamg‘armasi kafilligi mavjud bo‘lsa, jamg‘arma kafilligi evaziga mulkiy garovning ozod qismini hisoblanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

69. Mol-mulk kreditlash xizmati uchun navbatdagi garov sifatida taqdim etilayotgan hamda uning garov olish qiymati dastlabki (so‘ngi) olingan Bank bahosidan oshmasa (amaldagi diskontlardan kelib chiqib), ushbu mulk bo‘yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmasligi mumkin.

70. Mol-mulklar navbatdagi garov uchun olinishida ularning bank bahosi tartibning 3-ilovasida keltirilgan diskontlardan kelib chiqib belgilanadi.

71. Kelajakda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy risklarni oldini olish maqsadida, bir turdagи mulk(lar) navbatdagi garov sifatida quyidagi hollarda olinishi mumkin:

bankning bazaviy tarmoqlari uchun ajratilgan kreditlar uchun taqdim etilgan mulklar, bankning boshqa bazaviy tarmog‘iga kredit ajratilishi yoki kreditning ta’minotiga o‘zgartirish kiritilishi uchun navbatdagi ta’minot sifatida taqdim etilganda.

9-bob. Kredit ta’minotini qisman ozod etish bilan bog‘liq amaliyotlar

72. Kredit ta’minotlari ajratilgan kredit qarzdorliklari bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgandan so‘ng uch ish kunidan kechiktirmagan holda taqiqdan yechiladi. Kredit ta’minotlarini almashtirish yoki muddatidan avval ta’minotlar ro‘yxatidan chiqarish bank Kredit qo‘mitasi qarori bilan amalga oshiriladi. Kredit qo‘mitasi vakolatidan yuqori miqdordagi kreditlar ta’minotlarini almashtirish yoki muddatidan avval ta’minotlar ro‘yxatidan chiqarish vakolat doirasida bank Boshqaruvi yoki bank Kengashi qarori bilan amalgga oshiriladi.

73. Quyidagi hollarda ta’minotlarni qisman garovdan ozod etish bankning Kreditlarni boshqarish departamenti vakolati doirasida amalga oshirilishi mumkin:

ta’minot sifatida kredit qarzdorligi va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yetarli bo‘lgan likvidli mol-mulk garovi kredit qoldig‘ining 125% (aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%)idan yuqorini tashkil etgan kreditlarning garovga olingan mulklarini qisman garovdan chiqarish;

mol-mulk garovi 125% (aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%)idan yuqorini tashkil etgan kreditlar bo‘yicha ta’minot sifatida rasmiylashtirilgan kafilliklarni yoki sug‘urta polislarini ta’minotdan chiqarish (kredit qarzdorliklari kafil hisobidan so‘ndirilib kelinayotgan holatlar bundan mustasno);

kredit hisobiga sotib olingan transport vositalari hamda maxsus texnikalarni garovdan chiqarish (Hukumat qarorlariga asosan maqsadli jamg‘armalar yoki boshqa manbalar hisobidan ajratilgan imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

74. Kreditlarni boshqarish departamenti tomonidan mustaqil ko‘rib chiqilishi uchun

qarzdor hamda unga ajratilgan kreditlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

kredit summasining kamida 70 foizi qarz oluvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorda so‘ndirilgan bo‘lishi;

kreditlar shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar toifasiga kirmagan bo‘lishi (Hukumat qarorlariga asosan pandemiya va tabiiy ofatlar sababli shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar bundan mustasno);

bank tizimida va boshqa banklarda muddati o‘tgan kredit qarzdorligi mavjud bo‘lmasligi;

kredit mablag‘lari maqsadli ishlatilgan bo‘lishi;

mijoz kredit tarixida 30 kundan oshgan muddati o‘tgan qarzdorlik shakllangan holatlari 3 martadan ko‘p bo‘lmasligi;

vakolatli kollegial organ qarorida belgilangan shartlarning to‘liq bajarilganligi;

avvalgi olingan kreditlari bo‘yicha 90 kundan oshgan muammoli qarzdorliklar yuzaga kelmaganligi yoki sud jarayonlari olib borilmaganligi;

qisman ta’midot tarkibidan ozod qilinayotgan mulk, ta’midotda qolayotgan boshqa mol-mulklardan yuqori likvidli bo‘lmasligi.

75. Kreditlarni boshqarish departamenti vakolati doirasida ta’miotlarni bekor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

mijoz ta’midot mulkini garovdan bekor qilish yoki almashtirishni so‘rab hududiy boshqarma rahbariga ariza bilan murojaat qiladi;

bankning hududiy boshqarmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo‘limi xodimi mazkur Tartibning 73 va 74-bandlarda keltirilgan shartlarga asosan arizani o‘rganadi hamda hududiy boshqarma boshlig‘i imzosi bilan Kredit bosh direktoriga xat yuboradi;

Hududiy boshqarma tomonidan taqdim etilgan xat Kreditlarni boshqarish departamentining mas’ul xodimi tomonidan o‘rganilib yozma xulosa tayyorlanadi;

Kreditlarni boshqarish departamenti xulosasi Kredit bosh direktoriga taqdim etiladi hamda Kredit bosh direktori tasdig‘i (ruxsati) olinadi.

Tegishli ruxsat olingandan so‘ng bankning hududiy boshqarmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo‘limi xodimi tomonidan elektron hujjat aylanishi dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda elektron imzo (QR-kod) bilan tasdiqlash uchun Kreditlarni boshqarish departamentiga yuboriladi. Ushbu xat to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi departamentning mas’ul xodimi tomonidan tekshirilgandan so‘ng, Kreditlarni boshqarish departamenti direktori (ishda bo‘limgan vaqtarda vazifasi yuklatilgan mas’ul xodim) elektron imzosi (QR-kod) bilan tasdiqlanadi.

Notarial tartibda rasmiylashtirilmagan garov mulklari bo‘yicha garov reyestridagi yozuvlarni bekor qilish masalasi bankning hududiy bo‘linmasi tomonidan elektron hujjat aylanishi dasturida yuborilgan xatga asosan Kreditlarni boshqarish departamentining mas’ul xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

76. Mazkur Tartibning 73 va 74-bandlarida belgilangan talablar bajarilmagan hollarda kredit ta’motlarini qisman garovdan ozod etish masalasi kredit ajratilishida

belgilangan vakolatlar darajasida kollegial organlar tomonidan ko'rib chiqilib ijobiy qaror olingandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

10-bob. Garov hujjatlarini rasmiylashtirish va ularning hisobini yuritish

77. Kredit ajratish to'g'risida qaror qabul qilib, belgilangan tartibda tomonlar o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan keyin, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank va qarz oluvchi/garovga qo'yuvchi o'rtasida garov/ipoteka shartnomalari rasmiylashtiriladi.

78. Ta'minotga oid barcha shartnomalar amaldagi qonunchilik va bank Bosh ofisi tomonidan ishlab chiqilgan kreditlash bilan bog'liq namunaviy shartnomalardan foydalangan holda tuzilishi lozim.

79. Pul mablag'lari garovga taqdim etilishi quyidagi 2 (ikki) xil usulda amalga oshiriladi:

pul mablag'lari kredit ajratayotgan bankning hududiy bo'linmasida ochilgan maxsus hisobraqamga olib o'tiladi va omonat garov shartnomasi rasmiylashtiriladi. Ta'minotdagi pul mablag'lari kredit to'liq yopilmagunga qadar maxsus hisobraqamda saqlanishi lozim;

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB maxsus hisobraqamlarida saqlanadigan depozit inablag'lari kreditning ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday hollarda, depozit shartnomasi muddati kredit muddatidan kam bo'lmasi ligi, kredit muddatidan kam bo'lgan hollarda, uning inuddati kredit muddatiga mos ravishda uzaytirilishi hamda ushbu mablag'lar belgilangan tartibda garovga olingan (garov shartnomasi imzolangan) bo'lishi kerak. Bunda depozitdagi pul mablag'lari garovi shartnomasi imzolanishi, kredit majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, ushbu mablag'lardan akseptsiz undirish (garovga oluvchi huquqlaridan foydalangan holda) kabilar garov shartnomasida ko'rsatilishi kerak.

80. Qarz oluvchi va/yoki 3-shaxslar kredit bo'yicha garovda turgan o'zining va/yoki 3-shaxslarga tegishli depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini kredit shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qat'i nazar, mazkur kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega.

81. Qoplangan kafolat uchun taqdim etilgan pul mablag'lari kafolat muddati tugagunga qadar maxsus hisobraqamda yoki omonat hisobraqamida saqlanadi. Bunda benefitsiar tomonidan kafolat majburiyati qisman kamaytirilganligi to'g'risida ma'lumotnomasi taqdim etilsa, prinsipal murojaatidan kelib chiqib, ta'minotda turgan pul mablag'larining bir qismi egasiga qaytarilishi mumkin (ta'minotda qoladigan pul mablag'lari kafolat summasi va kafolat uchun hisoblangan foiz qarzdorliklarini qoplashga yetarli bo'lishi lozim).

82. Pul mablag'lari garovida, ushbu pul mablag'lari alohida "Boshqa majburiyatlar" balans hisobvarag'iga kirim qilinadi va mijozning bank oldidagi majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng yoki majburiyat bekor qilinganda chiqim qilinishi mumkin.

83. Ko‘chmas mulklar garovga taqdim etilishida quyidagi amaliyotlar bajarilishi lozim:

kredit ta’minotiga ko‘chmas mulk garovga olingan hollarda ipoteka shartnomasini notarial rasmiylashtirish (bunda birlamchi bozordan sotib olinadigan ko‘chmas mulk olish vaqtidagi ipoteka shartnoma mustasno). Ipoteka shartnomasini (shu jumladan bank tomonidan ajratiladigan ipoteka krediti ta’minoti sifatida birlamchi va ikkilamchi bozordan sotib olinayotgan ko‘chmas mulklarni kelajakda ta’minot sifatida tuziladigan garov (ipoteka) shartnomalarini ham) kadastr organida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

kadastr organidan ipoteka shartnomasining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tekshirish maqsadida “Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 2-ilovasida ko‘rsatilgan shaklda reyestrdan ko‘chirma olish;

reyestrdan ko‘chirmaning 3-bandи tegishli ustunlariga ko‘chmas mulkka nisbatan taqiq, xatlov yoki cheklovlар mavjudligi haqidagi yozuvlar kiritilishini (masalan, ipoteka shartnomasi, qonun asosidagi ipoteka bo‘yicha kredit shartnomasi sanasi, raqami va shu kabi) talab qilish. Ushbu amaliyotlar bankning hududiy bo‘limnalari Kreditlarni boshqarish bo‘limi mas’ul xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

84. Notarial tartibda tasdiqlangan bitimlar (ipoteka/garov) ga qo‘srimcha va tuzatishlar kiritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Notariuslar tomonidan mol-mulkni garovga (ipotekaga) qo‘yish to‘g‘risida”gi shartlarni tasdiqlashning ma’muriy reglamentiga asosan amalga oshiriladi.

85. Kredit ta’minoti sifatida rasmiylashtirilgan garov, kafillik, sug‘urta polisi bilan bog‘liq hujjatlar hisobi ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘ida qabul qilingan ta’minot summasida kredit va foizlar to‘liq so‘ndirilgunga qadar yuritiladi (ta’minot qisman ozod etilishi va/yoki almashtirilishi bundan mustasno). Bunda ular kredit ajratilgan kundan kechikmasdan tegishli hisobvaraqlarga kirish qilinishi shart.

86. Notarial tasdiqlanishi shart bo‘lidan bitimlar (garov/ipoteka shartnomalari) bank xodimi (vakili) va taraflar ishtirokida imzolanishi va imzolar asli imzo namunasi (fuqarolik pasporti va/yoki ishonchnomadagi)ga o‘xshagan bo‘lishini tekshirish lozim.

87. Bankning hududiy bo‘limma kreditlarni boshqarish bo‘limi mas’ul xodimi garov shartnomasining tegishli davlat organlaridan ro‘yxatidan o‘tkazilishi (tasdiqlanishi)ni tekshirishga mas’uldir. Shartnomalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi (tasdiqlanishi) shart qilib belgilangan hollarda, mijoz tomonidan shartnomalar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan holatda bankka taqdim etilishi shart.

88. Transport vositalari, maxsus texniklar va ko‘chmas mulklarni garovga qo‘yish to‘g‘risidagi shartnomalar tegishli davlat organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi (tasdiqlanishi) shart.

89. Garov hujjatlari notarial idoralarda rasmiylashtirilgandan so‘ng, garov mulkiga kredit bo‘yicha majburiyat to‘liq bajarilgunga qadar taqiq qo‘yiladi va bu taqiq tegishli

davlat organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

90. Bankning hududiy bo'linma kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi garov obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni garov reyestriga to'liq kiritishi shart. Mazkur ma'lumotlar to'laqonli garov reyestriga kiritilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida www.garov.uz saytidan tekshirib ko'riliishi lozim.

91. Garovga taqdim etilgan mulkni taqiqdan chiqarish, kredit majburiyati to'liq bajarilgandan so'ng, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi (bunda garov qisman ozod etilishi va/yoki almashtirilishi mustasno).

92. Garov obyektining turidan qat'iy nazar kredit ta'minotlarining hisobi balansdan tashqari hisobvaraqlarda yuritiladi.

93. Ta'minotlar to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng mijoz menejerlari tomonidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan kredit hamda uning ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'majildi bilan birgalikda Kreditlarni boshqarish bo'limiga topshiriladi. Kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi tomonidan kredit va uning ta'minotiga tegishli hujjatlar (garov, kafillik shartnomalari, kredit qaytmaslik sug'urta polisi, kredit shartnomalari, bank kafolati shartnomalari) asl nusxalari belgilangan tartibda kredit yig'majildiga tikiladi hamda majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar bankning hududiy boshqarmalaridagi Kreditlarni boshqarish bo'limida saqlanadi. Kredit va uning ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarning asl nusxalari temir, yonmaydigan shkaf(seyf)larda kreditlarni boshqarish bo'limi boshlig'i hamda xodimlari javobgarligi ostida saqlanadi. Ushbu hujjatlarning elektron nusxalari belgilangan tartibda xizmatda foydalanish maqsadida bankning (iABS) tegishli modulida yuklanishi shart. Mazkur bosqichda, ya'ni kreditlash xizmati (kredit, lizing, faktoring, bank kafolati) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgandan keyin ta'minot bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'majildi bilan birgalikda bank arxiviga topshiriladi.

94. Ta'minot rasmiylashtirishga doir barcha harakatlar (shartnomalarning tuzish, garovga qo'yilayotgan mulkni sug'ortalash, notarial tasdiqlash, ipoteka va boshqa shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa ishlari) bank tomonidan kredit mablag'lari ajratilgunga qadar amalga oshirilishi hamda garov mulki sug'urta polisi muddati kredit muddatiga mutanosib ravishda bo'lishi kerak. Kredit ta'minoti mulki garovdan to'liq ozod etilishi qarz oluvchi tomonidan bank oldidagi tegishli kredit qarzdorligi to'liq so'ndirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

95. Bank kredit shartnomasiga asosan kredit bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha:

garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;

garovda bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan chiqarish choralarini ko'rishi shart.

96. Garovga taqdim etilgan mulkni taqiqdan chiqarish, kredit majburiyati to'liq bajarilgandan so'ng Kreditlarni boshqarish departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, bankning hududiy bo'linmalaridagi kreditlarni boshqarish bo'limi xodimi

tomonidan elektron hujjat aylanishi dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda elektron imzo (QR-kod) bilan tasdiqlash uchun Kreditlarni boshqarish departamentiga yuboriladi. Ushbu xat to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi departamentning mas‘ul xodimi tomonidan tekshirilgandan so‘ng, Kreditlarni boshqarish departamenti direktori (ishda bo‘limagan vaqtarda vazifasi yuklatilgan mas‘ul xodim) elektron imzosi (QR-kod) bilan tasdiqlanadi.

Notarial tartibda rasmiylashtirilmagan garov mulklari bo‘yicha garov reyestridagi yozuvlarni bekor qilish masalasi elektron hujjat aylanishi dasturi orqali Kreditlarni boshqarish departamenti direktori elektron imzosi (QR-kod) olingandan so‘ng amalga oshiriladi.

97. Bank tomonidan garov egasini o‘zgarishi uchun rozilik faqatgina quyidagi asosli holatlar bo‘lganda beriladi:

garov obyektiga nisbatan mulk huquqi merosxo‘rlarga o‘tganda;
yuridik shaxs majburiy ravishda qayta tashkil etilgan yoki qo‘shib olinishi natijasida huquqiy vorisga o‘tganda.

98. Garovga taqdim etilgan ko‘chmas mulk hududida qo‘s Shimcha qurilish ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, ko‘chmas mulkning kadastr hujjatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishiga rozilik berish o‘rnatilgan tartibda hududlardagi kreditlarni boshqarish bo‘limi tomonidan garov obyekti joyiga chiqqan holda o‘rganilgandan va haqiqatda qurilish ishlari amalga oshirilganligi ko‘zdan kechirilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Bankning hududiy bo‘linmasi tomonidan ko‘chmas mulk kadastr hujjatiga mulknii taqiqdan chiqarmagan holda o‘zgartirish kiritilishiga rozilik taqdim etilgandan va kadastr hujjatiga o‘zgartirish kiritilgandan so‘ng, garov shartnomasiga, garov reyestri va tegishli dasturga o‘zgartirish kiritilishi lozim.

11-bob. Uchinchi shaxslar kafilligi ta’minot sifatida olinishi

99. Kredit ta’minoti sifatida to‘lovga layoqatli va moliyaviy ishonchliligi o‘rganilgan, doimiy pul mablag‘lari oqimiga ega bo‘lgan uchinchi shaxslarning solidar tartibdag‘i kafilliklari qabul qilinadi. Kafillik ta’minot sifatida qabul qilinishida va kafillik shartnomasi tuzilishida, bankning hududiy bo‘linmasi bevosita kafilning o‘zi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi, ya’ni “o‘zingni o‘zing himoya qil” tamoyiliga rioya qilishi kerak. Kreditlash xizmati ko‘rsatilishi masalasi ko‘rib chiqilishining boshlang‘ich jarayonida, ya’ni mijoz buyurtma (ariza)siga ilova sifatida kafil bo‘lishi rejalshtirilayotgan korxonaning kafil bo‘lishiga roziliqi bildirilgan va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan (firma blankasida, muhr bilan tasdiqlangan) xati taqdim etilishi lozim.

100. Kafil korxonaning moliyaviy holatini o‘rganishda quyidagilar o‘rganiladi:
korxona sof aktivlari mavjudligi, sof aktiv qaysi manba hisobiga shakllanganligi (sof aktiv faqat joriy aktivlardan tashkil topgan kafil korxonaning faoliyat joyiga chiqqan holda tovar moddiy zaxiralari mavjudligi mijozlar bilan ishlovchi menejer tomonidan o‘rganilishi mumkin);

boshqa banklardagi oxirgi 12 oylik hisobraqam aylanmasi yoyilmasi, hisobraqamga asosiy faoliyatdan tushum muntazam ravishda kuzatilayotganligi.

101. Kafillik ta'minot sifatida qabul qilinayotganda, olinayotgan kafillik summasi kafil korxona sof aktivlarning barobaridan oshib ketmasligi lozim (qo'shimcha ta'minot sifatida olinayotgan kafillik va Kredit qo'mitasi qarori bilan qabul qilinadigan kafilliklar bundan mustasno).

Kafil sof aktivlari quyidagicha hisoblanadi: sof aktivlar = jami aktivlar – jami majburiyatlar – boshqa kreditlar uchun taqdim etgan kafilliklar bo'yicha jami majburiyatlar qoldig'i.

102. Investitsion loyihalarda kredit ta'minoti sifatida yuridik shaxs kafilligi taqdim etilganda, kafil korxonaning asosiy faoliyatidan tushgan tushum kamida investitsion davrda qarz oluvchining foiz qarzdorligini qoplashga yetarli bo'lishi shart (qo'shimcha ta'minot sifatida olinayotgan kafillik va Kredit qo'mitasi qarori bilan qabul qilinadigan kafilliklar bundan mustasno).

103. Kafillik shartnomasi bank, qarz oluvchi va kafil tomonlar o'rtasida yozma shaklda tuziladi. Kafillik shartnomalari amaldagi qonunchilik va bank Bosh ofisi tomonidan ishlab chiqilgan kreditlash bilan bog'liq namunaviy shartnomalardan foydalangan holda tuzilishi lozim.

12-bob. Kredit qaytmaslik xatarini sug'urta qilinishi

104. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasiga muvofiq, sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-soni qarorning 6-ilovasida sug'urta faoliyati klassifikatori berilgan bo'lib, ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi (14-klass) qabul qilinadi. Bunda sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasini to'lanishini ta'minlovchi majburiyat hisoblanadi. Bank tizimida kredit ta'minoti sifatida sug'urta kompaniyalarini sug'urta polislarini olishda, avvalambor kompaniyani moliyaviy jihatdan barqarorligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarish qobiliyatiga egaligini hamda sug'urta kompaniyasini bunday turdagiligi shartnomalarni imzolash vakolati mavjudligini o'rganish lozim. Kreditlash xizmati ko'rsatilishi qarz oluvchi tomonidan so'ralayotgan kredit muddatiga mutanosib ravishda sug'urta qilinganligini tasdiqlovchi sug'urta polisi, sug'urta mukofotini to'liq to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilingan holda taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi. Agarda kredit hisobiga sotib olinadigan asosiy vositalarni kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etish rejalashtirilayotgan bo'lsa, asosiy vositalar yetib kelgunga qadar vaqtinchalik sug'urta polisi (14-klass) olinib, asosiy vositalar olib kelinib belgilangan tartibda rasmiylashtirilgunga qadar bo'lgan muddatga sug'urta mukofoti to'lanishi mumkin.

105. Bank, sug‘urta kompaniyasi va qarzdar o‘rtasida aniq majburiyatlar ko‘rsatilgan holda so‘ralayotgan kredit muddatiga mutanosib ravishda sug‘urta shartnomalari tuziladi. Sug‘urta shartnomasi bank Bosh ofisi tomonidan ishlab chiqilgan kreditlash bilan bog‘liq namunaviy sug‘urta shartnomasi loyihasidan foydalangan holda tuzilishi shart.

106. Sug‘urta to‘lovi oldindan taqdim etilayotgan sug‘urta polisining butun amal qilish davriga o‘tkazilishi shart. Qarz oluvchi to‘langan sug‘urta to‘lovlarni tasdiqlovchi tegishli to‘lov hujjatlari nusxasi olinishi va kredit yig‘majildiga tikib borilishi kerak.

13-bob. Yakuniy qoidalar

107. Ushbu Tartibda belgilangan qoidalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Markaziy bankning me’yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelmay qolgan holatlarda amaldagi qonun hujjatlariga rioya etiladi.

108. Kredit ta’minoti bilan ishslash tartibi talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan bank xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Kiritildi:

**Kreditlarni boshqarish
departamenti direktori**



F. Atayev

Kelishildi:


Kredit bosh direktori



M. Shermatov

Ichki me’yoriy hujjatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ekspert guruhi:


B. Djumayev



J. Yusupov




K. Karimov




Sh. Ochilov




A. Ravshanov




A. Normurodov



A. Xolov



S. Xidirov



“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash tartibiga
1-ilova

Baholash komissiyasi tarkibi

№	Mijoz segmenti	Bankning hududiy boshqarmasida	Bank xizmatlari ofisida
1.	Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar garov mulki bo‘yicha	Mavjud emas	1. Mijoz bilan ishlovchi menejer 2. Bank xizmatlari ofisi boshlig‘i o‘ribbosari (Chakana biznes bo‘yicha)
2.	Anderrayter va anderrayterlar guruhi vakolati doirasida tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarning garov mulki bo‘yicha	Mavjud emas	1. Bank xizmatlari ofisi boshlig‘i o‘ribbosari (Chakana biznes bo‘yicha) 2. Mijoz bilan ishlovchi menejer 3. Bank xizmatlari ofisi yuriskonsulti
3.	Bosh bank Kredit qo‘mitasi va Hududiy kredit komissiyasi vakolati doirasida tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarning garov mulki bo‘yicha	1. Hududiy boshqarma boshlig‘ining kredit operatsiyalariga mas’ul o‘ribbosari 2. Hududiy boshqarma yuriskonsulti 3. Kreditlarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i 4. Kredit qarzdorliklari bilan ishslash bo‘limi boshlig‘i 5. Hududiy boshqarma bosh buxgalteri	1. Bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi 2. Bank xizmatlari ofisi yuriskonsulti 3. Bank xizmatlari ofisi bosh buxgalteri 4. Mijoz bilan ishlovchi menejer

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
tizimida kredit ta’minoti
bilan ishslash tartibiga
2-ilova

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB

GAROV BAHOSINI KELISHISH DALOLATNOMASI

1	Baholash o’tkazilgan sana	25.12.2023 yil
2	Baholash o’tkazilgan joy	Toshkent shahar
3	Xizmat ko’rsatuvchi BXO	Yakkasaroy BXO
4	Kredit oluvchi mijoz nomi	“A” MChJ
5	Kredit summasining nominal qiymati	100 000 000
6	Kredit valyutasi	So‘m
7	Kredit summasining ekvivalentdagি qiymati	100 000 000
8	Talab etiladigan garov summasi	125 000 000
9	Taqdim etilayotgan garov summasi	125 000 000
10	Garovning kreditni qoplashi	125%

KO‘CHMAS MULK BO‘YICHА MA’LUMOT

Nº	Ko‘chmas mulk nomi	Egasi	Manzili	Kadastr raqami	Umumiy maydoni (m.kv.)	Qurilish osti maydoni (m.kv.)
1						

KO‘CHAR MULK BO‘YICHА MA’LUMOT

Nº	Ko‘char mulk nomi va uning xarakteristikasi	Egasi	Manzili	Ko‘char mulk egaligini tasdiqlovchi hujjat	Ko‘char mulkning sotib olingan narxi (agar mavjud bo‘lsa)
1					

MUSTAQIL BAHOLASH, TAVSIYAVIY XULOSADAGI VA BANK BILAN QIYMAT

Nº	Mustaqil baholovchi tashkilot nomi	Mustaqil baholash qiymati (so‘m)	Boshqa mustaqil baholovching tavsiyaviy qiymati (so‘m)	Bank tomonidan qabul qilinadigan qiymat (so‘m)	Navbatdagi garovning ozod qismi (agar mavjud bo‘lsa) (so‘m)	Qo‘llanilgan diskont, %da	Kredit qoplanishi, %da
1							
2							
3							
	Jami						

Izoh:

Garovga oluvchi: Yakkasaroy BXO
Yakkasaroy BXO boshqaruvchisi: _____
BXO yuriskonsulti: _____
BXO bosh buxgaleteri: _____
BXO mijoz bilan ishlovchi menejer: _____

Kredit oluvchi mijoz: “A” MChJ
Direktor: _____
Garov mulki egasi: “B” MChJ
Direktor: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
tizimida kredit ta’minoti
bilan ishlash tartibiga
3-ilova

Garov obyekti qiymatining yetarligini belgilash bo‘yicha diskont miqdori

Ta’minot turi	Kredit muddati	
	36 oygacha (36 oy ham kiradi)	36 oydan yuqori
Yer maydonlarini (bog‘, uzumzor va boshqalar) foydalanish huquqi (ijara)	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	50 % gacha	50 % gacha
Ko‘chmas va ko‘char mulklar		
Uy-joy/xonadon	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	80 % gacha	80 % gacha
Ipoteka krediti hisobiga sotib olingan uy-joy/xonadon	Dastlabki oldi-sotdi shartnoma qiymatidan kelib chiqib	
	100 % gacha	100 % gacha
Noturar bino-inshootlar	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	80 % gacha	70 % gacha
Kredit hisobiga sotib olingan noturar bino-inshootlar va yengil avtotransport vositalari	Oldi-sotdi shartnoma yoki BYuD qiymatidan kelib chiqib	
	80 % gacha	60 % gacha
Kredit hisobiga sotib olingan maxsus texnikalar, qishloq xo‘jaligi texnikalari, yuk o‘zi ag‘daruvchi texnikalari (samosvallar)	Oldi-sotdi shartnoma yoki BYuD qiymatidan kelib chiqib	
	60 % gacha	50 % gacha
Kredit hisobiga sotib olingan uskunalar, issiqxonalar, muzlatgichlar (xolodilnik) o‘rnatilib ishga tushirilgandan so‘ng	Oldi-sotdi shartnomalari, smeta-loyihalari yoki BYuD qiymatidan kelib chiqib	
	40 % gacha	30 % gacha
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshmagan yaxlit ishlab chiqarish liniyalari ko‘rinishidagi, alohida ravishda daromad keltiradigan texnologik uskunalar	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	60 % gacha	50 % gacha
Ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan qishloq xo‘jaligi va maxsus texnikalar (ekskavator, yuk tashuvechi maxsus texnikalar, kran va boshqalar)	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	60 % gacha	50 % gacha
Ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshmagan yengil avtotransport vositalari	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	80 % gacha	70 % gacha

Ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshgan, ammoy 5 yildan ko'p bo'lmasan yengil avtotransport vositalari	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	60 % gacha	50 % gacha
Zargarlik buyumlari		
Zargarlik buyumlari (qimmatbaho buyumlar va taqinchoqlar)	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib	
	60 % gacha	50 % gacha

* - Bank boshqaruvi tomonidan muammoli aktivlarni sog'lomlashtirish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish bo'yicha qabul qilingan qarorlariga asosan Bank balansiga olingan mulklar salohiyatlari mijozlarga kredit/bo'lib to'lash asosida sotilishi evaziga ushbu mulklar garovga olinishida garov miqdorining yetarlilikini belgilash bo'yicha diskont miqdori oldi-sotdi shartnomaga asosan yuqorida ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
tizimida kredit ta'minoti
bilan ishslash tartibiga

4-ilova

Moliyaviy instrumentlarni kredit ta'minoti sifatida qabul qilish bo'yicha diskont miqdori

Ta'minot turi	Baholash yoki bozor qiymati (hisoblash bazasi)	Ta'minot qiymati
Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari	Birjadan tashqari bozorlarda xaridor taklif etgan narxdan 100%	90%
Davlat obligatsiyalari	Fond birjasida xaridor taklif etgan narxdan 100%	90%
Aksiyalar (kotirovka qilinadigan)	Fond birjasida xaridor taklif etgan narxdan 100%	70%
Bankning hududiy bo'limmalari va boshqa banklardagi milliy va chet el valyutadagi depozitlari	Bank ishonchlilik reytingidan kelib chiqib	0-100%gacha
Sug'urta kompaniyalari yoki bank kafolati	Kafolat beruvchining moliyaviy hisobotlariga ko'ra uning moliyaviy holati va mavqeyidan kelib chiqib	0-100 % gacha
Kredit qaytmaslik riski sug'urta polisi	Sug'urta kompaniyaning moliyaviy hisobotlariga ko'ra uning moliyaviy holati va mavqeyidan kelib chiqqan holda	0-100 % gacha

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 5-yanvar

Toshkent shahri

106 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat - **Tartib**
loyihasining turi:

2. Ichki me’yoriy hujjat - “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB tizimida kredit
loyihasining nomi: **ta’minoti bilan ishlash tartibi**

3. Lingvistik ekspertizani - **A. Ravshanov**
o’tkazuvchi:

4. Lingvistik ekspertiza - **2024-yil 5-yanvar**
o’tkazilgan sana:

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi
662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini lingvistik
ekspertizadan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va
orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo’llanilgan.

Ekspert:


(imzo)

A. Ravshanov

100060 Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy, tel/faks: +998(78) 150-93-39, yurist@brb.uz

2024-yil 11-yanvar

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 3

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kreditlarni boshqarish departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash Tartibi” loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o’tkazildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o’tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadи.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev